



NAZAR ESHONQUL HIKOYALARINING O'ZIGA XOSLIGI

Tojmuratova Dilnoza Sherzod qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-bosqich magistranti
dilnozatojmuratova833@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri bo'lgan Nazar Eshonqul hikoyalarda inson ruhiyatining badiiy tasviri tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida yozuvchining "Shamolni tutib bo'lmaydi" va "Bepoyon osmon" hikoyalari asosida muallifning falsafiy qarashlari, badiiy tafakkuri hamda obraz yaratish mahorati o'rganildi. Hikoyalarda qahramonlarning ruhiy kechinmalari orqali o'tmish va bugun, adolat va zulm, muhabbat va yolg'izlik kabi hayotiy mavzular badiiy talqin etilganligi yoritildi. Shuningdek, yozuvchi ijodida ramziy tasvirlar, psixologik tahlil hamda inson va jamiyat munosabatlari muhim o'rin tutishi ko'rsatib berildi. Tadqiqot natijalari Nazar Eshonqul hikoyalarda inson ruhiyati tasviri zamonaviy o'zbek nasrining muhim badiiy xususiyatlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Nazar Eshonqul, inson, o'zbek nasri, ruhiyat, falsafiy tahlil, hikoya.

Abstract. This article analyzes the artistic depiction of human psychology in the stories of Nazar Eshonqul, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. The research examines the writer's philosophical views, artistic thinking, and mastery of character creation based on his stories "The Wind Cannot Be Caught" and "Endless Sky". The study highlights how themes such as past and present, justice and oppression, love and loneliness are revealed through the psychological experiences of the characters. It also emphasizes the role of symbolic imagery, psychological analysis, and the relationship between human beings and society in the writer's works. The findings show that the depiction of human psychology in Nazar Eshonqul's stories represents one of the important artistic features of modern Uzbek prose.

Keywords: Nazar Eshonqul, human, Uzbek prose, psychology, philosophical analysis, short story.

Kirish. Nazar Eshonqul – o'zbek modernistik nasrining yetakchi vakillaridan biri bo'lib, uning ijodida inson ruhiyati, jamiyat va falsafiy fikrlar ustuvor o'rin tutadi. Yozuvchining "Bepoyon osmon" hikoyasi inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalar, taqdir, ruhiy iztirob va umid kabi mavzularni yoritadi. Ushbu maqolada asarning sujeti, badiiy uslubi va falsafiy qatlamlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. "Bepoyon osmon" hikoyasi insonning hayot va tabiat bilan uyg'unligi, ruhiy erkinlik va insoniy qadriyatlar haqida hikoya qiladi. Asarning sujeti murakkab bo'lib, unda realistik va ramziy unsurlar bir-biriga uyg'unlashtirilgan. Bosh qahramonning ichki kechinmalari, orzu va umidlari osmon kengliklari timsolida tasvirlanadi. Hikoyada vaqt va makon tushunchalari mutlaq emas, balki subyektiv talqinda berilgan. Bu esa voqealarning



shunchaki izchilikda emas, balki ruhiy kechinmalar orqali aks etishiga sabab bo'ladi. Qahramon hayotining ma'nosini anglash yo'lida turli bosqichlardan o'tadi va oxir-oqibatda ruhiy oydinlikka erishadi. Nazar Eshonqul hikoyalarining asosiy xususiyatlaridan biri ramziy ifodalarning keng qo'llanishidir. "Bepoyon osmon" hikoyasida ham osmon obrazining bevosita va bilvosita ramziy ma'nolari mavjud. Osmon insonning orzu va umidlari, cheksizlik va erkinlik timsoli sifatida tasvirlangan. Bosh qahramon hayotining turli bosqichlarida osmon tasvirlari orqali uning ruhiy holati ochib beriladi. Bundan tashqari, hikoyada tabiat tasvirlari ham muhim o'rin tutadi. Tabiat insonning ichki dunyosi bilan uyg'unlikda yoritilgan bo'lib, u qahramon ruhiyatining aks-sadosi sifatida xizmat qiladi. Yozuvchi tashqi dunyoni tasvirlash orqali inson qalbining sirli tomonlarini ochib berishga intiladi. Hikoyada inson hayotining mohiyati, taqdir va erkinlik mavzulari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Asarning asosiy g'oyalaridan biri shundaki, inson o'z hayotini anglash va o'zini topish jarayonida doimo izlanishda bo'lishi lozim. Bepoyon osmon qahramon uchun ramziy ma'noda yangi bosqichga o'tish, o'zligini anglash va haqiqiy erkinlikka erishish timsolidir. Yozuvchi jamiyat va shaxs o'rtasidagi ziddiyatni ham chuqur yoritadi. Qahramonning ichki iztiroblari va tashqi dunyoga bo'lgan munosabati orqali insonning yolg'izligi, uning ijtimoiy qoidalarga moslashish yoki ulardan chiqib ketish istagi aks ettirilgan. Nazar Eshonqul ijodi modernistik va postmodernistik yo'nalishlarga mansub bo'lib, "Bepoyon osmon" hikoyasida ham bu uslubning aniq belgilarini ko'rish mumkin. Asarda zamonaviy insonning ruhiy iztiroblari, noaniqlik, ma'naviy qidiruv jarayoni hamda ramziy obrazlarning betakror uyg'unligi namoyon bo'ladi. Modernizm unsurlari sifatida hikoyada subyektiv voqelik, ichki monolog, insonning anglash jarayonlari tasvirlangan bo'lsa, postmodernizm ta'siri ayniqsa intertekstual yondashuv va falsafiy talqinlarda seziladi. Yozuvchi hayot haqiqatini bevosita aks ettirish o'rniga uni ramzlar va badiiy tasvirlar orqali ochib beradi.

Adabiyotning bosh mavzusi esa inson va uning ruhiyati hisoblanmoqda. Shuning uchun maqolada Nazar Eshonqulning hikoyalaridagi obrazlar tadqiq qilindi. Yozuvchi o'zining bir qancha hikoyalarida adabiyotning postmodernizm yo'nalishi unsurlarini amalda qo'llab ijod qilmoqda. "Maymun yetaklagan odam", "Tobut", "Bepayon osmon", "Qo'l" hikoyalari shular jumlasidandir. Uning obraz yaratishdagi psixoanaliz mahorati tahsinga loyiq. Badiiy asar konteksti shu qadar quyma, samimiy, tabiiy so'zlarni o'z ichiga olganki, kitobxon beixtiyor personajning ruhiy olamini o'zida qayta his qila oladi. Adibning "Qo'l" hikoyasi obrazlari va uning xususiyatlarini o'rganish bilan bugungi kun kishisini ham anglash mumkin. Ushbu hikoyada konkretlik xususiyatiga ega realistik obrazlarga: Salom tegirmonchi, mulla Keldiyor, Panji muallim, Azim oqsoqol obrazlari kiradi. Metaforik sifatli fantastik obraz sifatida "Qo'l" obrazini keltirish mumkin. Assotsiativ xususiyatli obrazlarga uy va qishloqni aytish mumkin. Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma'lum bir g'oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchilik imkoniyatga ega emas. Ijodkorning



“Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Maymun yetaklagan odam”, “Xayol tuzog‘i”, “Tobut”, “To‘zon”, “Og‘riq lazzati” kabi hikoyalarini har jihatdan ilmiy-estetik tahlil va tadqiq qilish, ular orqali o‘zbek hikoyachiligida g‘arb modern adabiyotiga xos xususiyatlarning shakllanishi va o‘ziga munosib o‘rin egallash jarayonini o‘rganish mumkin. Yozuvchi asarlaridagi qahramonlarga xos milliylik, voqealarning sirli tarzda vositalar orqali, ba‘zan sahna ortida imo-ishoralar bilan ko‘rsatilishi, eng asosiysi, asarlaridagi voqealar “men” tilidan hikoya qilinishi va doimo o‘zini-o‘zi taftish-u tahlil etib borishi, o‘z gunohlariga iqrorligi adabiyotdagi, nainki milliy mustaqillik davri o‘zbek hikoyachiligi, balki butunicha nasrimizdagi yangicha uslubiy yo‘nalish sifatida o‘rganishga sazovordir. Bu xususda yozuvchi Nazar Eshonqulning o‘zi shunday fikr bildiradi: “Adabiyot hech qachon yakka holda taraqqiy etgan emas. Bir insonni fikridan qaytarish yoki o‘z haqiqati bo‘lgan shaxsning qarashlarini o‘zgartirish oson emas. Chunki inson o‘z maslagidan voz kechishi, bosib o‘tgan yo‘lini, yashash tarzini inkor etishi, men adashibman, deya osongina tan olishi hazilakam gap emas. Bu qalb va iroda bilan kechadigan jarayon. Axir, umr davomida singdirilgan mafkurani yangilashning o‘zi bo‘lmaydi-da! Jahon adabiyoti dunyodagi yuzlab xalqlarning adabiyoti, shu jumladan bizning ham. U bizga begona adabiyot emas. Shuning uchun jahon adabiyoti tushunchasiga cho‘chib, xavotirlanib qarash noo‘rin. An‘analar adabiyotdan adabiyotga o‘tadi. Kimda nimaga ehtiyoj bo‘lsa, o‘shani oladi. Men ham o‘z ehtiyojimga yarasha olganman. Kimga kerak bo‘lsa bizdan oladi. Men ta‘sirni juda oddiy tushunaman, shu sababli cho‘chimayman. “Boshqacha yozish” agar o‘ziga xos yozish bo‘lsa, bu muqarrar hodisa. Agar u chiranish, oliftachilik bo‘lsa, u hech narsa, hatto taqlid ham emas. Taqlid ham taqlid qilinayotgan narsaga mos bo‘lishi kerak. Bo‘lmasa u karnay bo‘laman deb chirangan surnayning holiga tushadi. Gap taqlid yoki ta‘sirida emas: gap iste‘dodda. Yozilgan asarda iste‘dod seziladimi, yo‘qmi? Agar sezilsa, xavotir noo‘rin. U baribir ta‘sir doirasini yorib chiqadi”. Yozuvchining bir qator hikoyalari, jumladan, “Hayol tuzog‘i”, “To‘zon”, “Lazzat ortida qolgan yurak”, “Zulmat saltanatiga sayohat” hikoyalari an‘anaviy asarlar singari bir kishi taqdiri tafsilotlari tavsifidan iborat emas. Ular mislsiz azobda o‘rtanayotgan bor bisotidan, o‘zligidan ajralgan dunyoga qo‘l siltagan inson ichki olamining so‘zda chizilgan suratiday bo‘lib ko‘rinadi. Bu surat buyuk rassomlar asarlari singari qabariq va ta‘sirchandır. Undan o‘z xotiralarini yengolgan, taqdir so‘qmoqlarida adashgan alamzada odam so‘zlab turganday ko‘rinadi. Bu qahramonlar o‘zini-o‘zi inkor qilgan g‘alayonlarning mo‘jaz umumlashmasi sanaladi. “Xaroba shahar surati” hikoyasi ham yozuvchining mahorati, iste‘dodidan darak beradi. Beparvolik va loqaydlik inson tanazzuli. Uning tuyg‘ularsiz yashashi, kimligini va nima uchun bu dunyoga kelganligini anglamaslik, misoli hayvondek faqat qorin g‘amini, o‘z tinchini o‘ylashi insoniylikdan yiroqlashish degani. “Xaroba shahar surati” hikoyasi insoniyatning o‘sha tanazzuliga, zulmatga singish jarayonini ko‘rsatganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ko‘p yillar aldov odamzotni shunday ko‘yga soldi. Uni jirkanch maxluqdan ajratib bo‘lmas holda tarbiya qildi. Natijada inson



“Xayol tuzog‘i” hikoyasidagi kabi odamkushlikka ruju qo‘ydi. Yonida har kun bir-birini chopish maqsadida bolta olib yurar holga tushdi. Bu uning kasbiga aylanib bordi. Insoniyat tarixi o‘tmish davrlaridan iborat. O‘tmaydigan davrning o‘zi yo‘q. Badiiy tafakkur ham shu. U tinimsiz o‘zgaradi, o‘zgargani sayin badiiy tasvir imkoniyatlari kengayadi, torayadi, tinch turmaydi. Shu tariqa har qanday milliybadiiy tafakkur biridan keyingisiga o‘tuvchi bosqichlar evolyutsiyasidan tashkil topa boradi. Ana shu tadrijiy davomiylilik ilg‘ab olinsa, milliy-badiiy tafakkurning yaxlit bir jarayon ekanligini tasavvur etish oson ko‘rinadi. Mazkur yaxlit jarayon ichidagi badiiy tafakkur evolyutsiyasi bosqichlarini aniqlash uchun esa qo‘llanilayotgan badiiy tasvir vositalari tadrijini o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Chunki ijodkor shaxs dunyoni, insonni qanday idrok etsa, shunga yarasha badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi, yangilarini kashf etadi. «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya Yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalarida esa bu ko‘rinish o‘ziga xos tarzda bo‘y-bast ko‘rsatib borayotir. “Uyg‘onish badiiyati insonni jo‘n va yuzaki tushunishdan, uni bir yoqlama talqin etishdan voz kechdi, – deb yozadi filologiya fanlari nomzodi Xurshid Do‘stmuhammad, – o‘zbek hikoyachiligida bu o‘ziga xoslik nasihatbozlikdan qutulishda o‘z ifodasini topdi. Misol uchun “oqpadarlik – yomon”, ichkilikbozlik, poraxo‘rlik – illat” singari “g‘oya”lar hikoyalarda o‘z qadrqimmatini yo‘qotadi. Ishlab chiqarish mavzusidagi jasoratlar madhi o‘rnini qahramonning shaxs sifatidagi kamolini izlash tasviri egalladi. Qahramonlarning ijobiy yoki salbiyligini belgilovchi mezonlar o‘zgaradi. Qahramon shaxsi, ruhiy olami, shuuri tasviriga moyillikning kuchayishi hikoyaning syujet qurilishini, tasvir maromini, konfliktlar tabiatini yangiladi”. Darhaqiqat, adib ta’kidlaganidek, inson ruhiy holatini taftish etuvchi, uning o‘zligini, “men”ini kashf etishga qaratilgan modern adabiyoti Sharqning ulkan tafakkur qudrati bilan yaratilgan. Bu borada yozuvchi Nazar Eshonqul fikr bildirar ekan, xalqimizning qadimiy ijod namunalari yuqori baholab: “Turkiy xalqlar asotir va eposining ta’sir ko‘lami shu darajada kengki, biz hatto buni tasavvur ham qilolmaymiz. Agar biz ana shu merosni o‘zlashtira olsak, g‘arb adabiyoti nimadan “ozuqlangan”ini ham, chinakam ma’nodagi adabiyot o‘zi nimadan iborat ekanligini ham tezda tushunib yetamiz”. Nazar Eshonqul asarlarini o‘qib turib yozuvchi ijodidagi ko‘zga tashlanadigan jihatlar asosan xalq mifologiyasi asosida, uning o‘zagidan ruh olib yaratilganligiga amin bo‘lasan. “Shamolni tutib bo‘lmaydi”dagi Bayna momodek matonatli insonlar, “Xaroba shahar surati”dagi parishon yigit, o‘z tanazzulini sezmagani saylovga nomzodi qo‘yilgan shoir, unga qarama-qarshi tarzda o‘z mag‘lubiyatini seza turib, bunga ko‘nikkan professor, “Xayol tuzog‘i”dagi aldov va maqsadsizlik ustiga qurilgan bu dunyodan voz kechgan Voqif, inson miyasini taomiga aylantirgan “To‘zon”dagi maxluqlarga urush ochib, o‘zi ham uning domiga tushgan yozuvchi yigit, “Lazzat ortida qolgan yurak”dagi kabi yo‘qlik va noma’lumlik, puch g‘oyalarga berilgan talabalarning o‘y-xayollari, orzu-armonlari, kechinmalari, his-tuyg‘ulari aks etgan bir qator hikoyalar dunyoga keldiki, ular Xurshid Do‘stmuhammadning ta’biri



bilan aytganda bugungi “uyg‘onish badiyatining” nodir namunalari sirasiga kiradi. “Har bir millat o‘z uyg‘onish davrini o‘ziga xos yo‘sinda boshdan kechirgan” deb yozadi taniqli badiyatshunos faylasuf A.Losev va uyg‘onish badiyatining bosh alomatlaridan biri qadimgi qadriyatlarga tashnalikning kuchayishi ekanini ta’kidlaydi. Insoniyat tarixidagi eng ko‘hna qadriyatlar tabiat qonunlariga uyg‘unlashib ketishi bilan farqlanadi. Bu ulkan haqiqat Nazar Eshonqul hikoyalarida o‘ziga xos tarzda o‘z talqinini topdi. Ayniqsa, o‘zbek xalqi tabiatidagi ` 154 «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya eng qadimiy va eng tabiiy tuyg‘u kindik qoni to‘kilgan ona zaminga muhabbat tuyg‘usi hisoblanadi. Nazar Eshonquling “Ozod qushlar”, “Maymun yetaklagan odam”, “Tobut”, “Xayol tuzog‘i” kabi ko‘plab hikoyalarida ozod vatanning ozod sohibi obrazlari turkumi yaratildi. Nazar Eshonqul hikoyalarida dunyoni, insonni qayta nazardan o‘tkazar ekan, shaxs ehtiyojlari va manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Har qanday qadriyat shaxs manfaati nutqayi nazaridan baholanadi. Bunday hollarda insonning, shaxsning eng nozik, eng bokira kechinmalari ham tarixiy hodisa ahamiyatiga teng ko‘rinadi. Zero, dunyoni va insonni qayta tahlil etishga kirishgan lirik qahramon inson shuuri va qalbidagi eng xususiy hilqatlarga ham tap tortmay kirib boraveradi. Bu eng erka tuyg‘u va istaklarni oshkora qilish joizmi? Yo nojoiz deb ikkilanmaydi, balki nima mavjud ekan, hammasini ko‘rsatishga harakat qiladi. Ya’ni mavjudmi, bas, ular rad etilmaydi. Balki badiiy mushohada, mulohaza mavzuyiga aylantiriladi. Bundan tashqari shuni e’tirof etish kerakki, Nazar Eshonqul hikoyalari tili o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda asar qahramonlarining ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligi yozuvchi tilidan e’tirof etilmaydi. Aksincha, bu yumushni o‘quvchining o‘ziga qoldiradi, uni mushohadaga chorlaydi. Umuman olganda, asarda kimlar ulug‘lanayotgani, qoralanayotgani ko‘pincha bevosita emas, bivosita ifodalanadi. Majoziy, ko‘chma ma’noli tasvirlar ta’rif-u tavsiflarga tez-tez murojaat etilib, ularning ustuvorligi ta’minlanadi. Eng muhimi, tasvirlardagi majozlar ko‘chma ma’noli vositalar qahramonlarning betakror ruhiy dunyosini yoritishga xizmat qiladi. Bugungi nasrdagi yangi jarayonlar, ma’naviy, shakliy-uslubiy izlanishlar ko‘proq Nazar Eshonqul hikoyalarida o‘ziga xos tarzda aks etmoqdaki, u yozuvchi ta’kidlaganidek, o‘tmish ajdodlarimiz yaratgan qadimiy adabiyotdan kuch olayotgan bo‘lsa, ajab emas. Bu yozuvchining ilk hikoyasi “Maymun yetaklagan odam” dayoq o‘z ifodasini topgan edi. Mazkur asar zamondosh, asrdosh obrazini yaratish yo‘lidagi yetmish yillik tajribalarning muayyan intihosi va ayni zamonda yangi bosqichning boshlanishi bo‘ldi, deya adabiyotshunoslarimiz tomonidan yuqori baholangan edi.

Nazar Eshonqulning hikoyalarida inson ruhiyati, ichki dunyosi va jamiyat bilan munosabatlari chuqur tasvirlangan. Uning asarlarida xarakterlar nafaqat tashqi voqealar bilan, balki o‘z hissiyotlari, fikrlari va ruhiy kechinmalari orqali ham rivojlanadi. “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Bepoyon osmon” kabi hikoyalarda yozuvchi inson hayoti va uning murakkab psixologiyasini nozik va falsafiy tusda ochib beradi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Eshonqulning hikoyachilik mahorati obraz yaratish, ichki kurashlarni aks ettirish va falsafiy tafakkur orqali o'quvchini chuqur o'ylashga undashda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, uning asarlari zamonaviy o'zbek nasrining estetik va ma'naviy jihatlarini boyitadi, adabiyotimizda inson ruhiyatini anglashga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning hikoyachiligi insonning ichki dunyosini ochib berish, psixologik nozikliklarni ifodalash va o'quvchi tafakkurini kengaytirishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qozoqboy Yo'ldoshev Yoniq so'z. Yangi asr avlodi, 2006. 548 b.
2. O'zME. Husniddinov Z., Ibrohimov N. 20-bet. -T: „Davlat ilmiy nashriyoti“, 2004.
3. Q. Yo'ldosh, M. Yo'ldosh Badiiy tahlil asoslari Toshkent – 2016.
4. Nazar Eshonqul Saylanma I. Toshkent: Akademnashr, 2022. – 512 b.
5. Bahodir Karim Ruhiyat alifbosi – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 364 b.
6. Dilmurod Quronov Adabiyot nazariyasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.

